XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

## 2021- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

# Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

**yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2019- yil**




**2020- yil**




**2021- yil**

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM** dagi ulushi **73,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **14,1** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-dekabrida **4 914** ta yangi kichik korxona va mikrofirma (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil etildi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **106,1 %** ni tashkil qildi.

## 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p yangi kichik korxona va mikrofirmalar savdoda - **1 845** ta, sanoatda – **1 090** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida - **636** ta, yashash va ovqatlanishda - **325** ta, qurilishda - **238** ta, tashish va saqlashda - **174** tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

UZSTAT

## 2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 99,1
- Sanoat 22,0
- Qurilish 87,2
- Investitsiya 59,0
- Savdo 87,0
- Xizmatlar 64,4
- Eksport 51,7
- Import 74,8

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 21 984 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 4 914 |

2021- yilning yanvar-dekabrida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

### 2021- yil yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

- Savdo — 34,0%
- Sanoat — 19,4%
- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi — 12,4%
- Qurilish — 9,2%
- Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar — 7,1%
- Tashish va saqlash — 3,8%
- Axborot va aloqa — 1,5%
- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish — 2,1%
- Boshqa faoliyat turlari — 10,5%




yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

### Hudidlar bo‘yicha yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2021- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Urganch shahri – 15,7 %, Urganch tumani – 11,4 %, Hazorasp tumani – 8,3 %, Bog‘ot tumani – 8,7 %, Qo‘shko‘pir tumani – 9,5 %, Gurlan tumani – 7,2 % va Xonqa tumani – 6,8 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




**Ma’lumot uchun: 2021– yilning yanvar- dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:**

**Savdoda**
**1 845 ta**

**Sanoatda**
**1 090 ta**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida**
**636 ta**

**Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda**
**325 ta**

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 14,1 birlikni tashkil etdi.

### Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-dekabr holatiga ko‘ra*




2021- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga kichik tadbirkorlik subyektlari sonining hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichi Urganch sh.- 31,1 birlik, Xiva sh.- 20,4 birlik, Yangibozor tumanida - 17,9 birlik, Urganch tumanida - 15,9 birlik, Tuproqqal'a tumanida - 14,2 va Xiva tumanida - 13,6 birlikni tashkil etgan.

### 2021– yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
**Urganch shahri - 31,1 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
**Xiva tumani - 13,6 birlik.**

**Past ko‘rsatkich**
**Hazorasp tumani - 7,8 birlik.**

2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Urganch sh. 31,1 birlik, Xiva sh. 20,4 birlik, Yangibozor tumanida 17,9 birlik, Urganch tumanida 15,9 birlik, Tuproqqal'a tumanida 14,2 birlik, Xiva tumanida 13,6 birlik, Yangiariq 13,2, Gurlan 13,0 birlik, Qo'shko'pir tumanida 12,1 birlik, Xonqa tumanida esa 11,7 birlikni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-dekabrida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




** Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 119,2 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 51,7% ini tashkil etdi.**






**yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi**

**2021- yilnig yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Tuproqqal'a tumanida – 100,0%, Xiva tumanida – 99,9%, Xiva shahrida – 98,3%, Qo'shko'pir tumanida – 94,7%, Gurlan tumanida – 77,1% va Bog'ot tumanida – 61,4% ni, eng past ko‘rsatkich Yangiariq tumanida – 24,4% ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **213,7** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **74,8** % ini tashkil etdi.




**yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2021- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Xiva tumanida – 100,0 %, Tuproqqal'a tumanida – 99,9 %, Xiva sh. – 99,2 %, Bog'ot tumanida – 97,1 %, Hazorasp tumanida – 96,4 %, Urganch tumanida – 95,7 %, Shovot tumanida – 92,7 % tashkil qilgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkich Yangiariq tumanida – 38,1 % ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

**2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 003,1** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (533,4 mlrd. so‘m), Urganch (381,2 mlrd. so‘m), Yangiariq (288,9 mlrd. so‘m), Tuproqqal'a (246,8 mlrd. so‘m) va Yangibozor (242,9 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Qo'shko'pir tumanida (100,2 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi**

2021- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **22,0** % ni tashkil etdi.

**2021- yil yanvar-dekabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva (100,0%), Xiva sh. (100,0), Yangiariq (100,0%), Yangibozor (51,8%), Urganch (49,6%), Bog'ot (48,4%), Gurlan (34,2%), Xonqa (33,6%), Shovot (32,1%), Hazorasp (30,3%) va Qo'shko'pir (27,7%) tumanlari tashkil etdi. Tuproqqal'a tumanida (3,6%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 270,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **87,0** % ini tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **114,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (2569,5 mlrd. so'm), Hazorasp (1046,2 mlrd. so'm), Urganch (984,3 mlrd. so'm), Gurlan (884,4 mlrd. so'm), Shovot (629,1 mlrd. so'm) va Xonqa (615,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2021- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 726,0** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **87,2**% ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **127,2**% ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (703,4 mlrd. so‘m), Xiva (392,6 mlrd. so‘m), Urganch (361,4 mlrd. so‘m), Xonqa (270,9 mlrd. so‘m), Bog'ot (249,1 mlrd. so‘m), Gurlan va Qo'shko'pir (248,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 387,5** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **64,4** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **120,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Urganch shahri (1313,3 mlrd. so‘m), Urganch (480,9 mlrd. so‘m), Hazorasp (397,5 mlrd. so‘m), Bog'ot (379,1 mlrd. so‘m), Xonqa (389,8 mlrd. so‘m), Qo'shko'pir (359,7 mlrd. so‘m) va Gurlan (352,0 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

## 2021- yilning yanvar- dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (bizness) da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati



# 2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi koʻrsatkichlari

**2021- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yoʻlovchi tashishda




Yoʻlovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,2 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 105,1 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar- dekabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 78,3 % ni tashkil etgan boʻlib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 105,9 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar- dekabr oylarida, avtomobil transportida yoʻlovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,6 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 105,0 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar- dekabr oylarida, avtomobil transporti yoʻlovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 95,8 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati 104,6 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil IV chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **885** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 230 (26,0 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 612 (69,1 %) ta subyekt iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 43 (4,9 %) ta subyekt iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofir-malarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 8,4 % (74 ta), sanoatda – 19,7 % (174 ta), qurilishda – 8,0 % (71 ta) , savdoda – 38,9 % (344 ta), xizmatlar sohasida – 25,0 % (222 ta) ni tashkil etdi.

**2021- yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yil IV chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahri (196 ta), Urganch (98 ta), Xonqa (88 ta) tumanlari, Xiva sh. (66 ta), Qo'shko'pir (61 ta) va Bog'ot (57 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021- yil IV chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




**2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikro-firmalarning 2021- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 20,3% ni, sanoatda 23,6% ni, savdo sohasida 32,5% ni va qurilishda 28,2% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxona-larning eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 75,7% ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 74,3% ni, sanoatda 71,3% ni tashkil etdi.

2021- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda 38,0 % ni, savdo sohasida 38,4 % ni, sanoatda 27,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 71,6 % ni, xizmatlar sohasida 72,1 % ni, sanoatda 69,0 % ni tashkil etdi.